QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.052

UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALAR UCHUN TA’LIMNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA SAMARALI MODELLAR

Umarova Saboxon Minavvarovna *– QDU*
Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti
saboxon 1966@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqola uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash, kasallik va davolanish jarayonining bolaning ta’limiy, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini kamaytirish, ta’lim jarayonini tibbiy xizmat bilan uyg‘unlashtirish, uzoq muddatli davolanish sharoitida bola odatiy maktab muhitidan vaqtincha uzoqlashishi, darslarni muntazam o‘zlashtira olmasligi, tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalari susayishi va o‘quv motivatsiyasi pasayishi sababli faqat o‘quv dasturini yetkazish bilan cheklanmasdan, individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, sog‘liq holatini hisobga olish, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va maktabga qayta integratsiyalashuvni ta’minlashni ham qamrab olishi haqida fikr bildirilgan

Kalit so‘zlar: uzoq muddatli davolanish, bolalar ta’limi, kasalxona pedagogikasi, uy ta’limi, inklyuziv ta’lim, individual ta’lim, masofaviy ta’lim, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, maktabga reintegratsiya, ta’lim sifati.

Аннотация.В данной статье выражается мнение, что обеспечение права на образование детей, нуждающихся в длительном лечении, снижение влияния заболевания и процесса лечения на образовательное, психологическое и социальное развитие ребенка, сочетание образовательного процесса с медицинской помощью и отсутствие ограничений в реализации учебной программы в связи с тем, что во время длительного лечения ребенок временно отстранен от привычной школьной среды, не может регулярно усваивать уроки, имеет ослабленные социальные контакты со сверстниками и сниженную мотивацию к обучению, должно также включать выявление индивидуальных образовательных потребностей, учет состояния здоровья, психолого-педагогическую поддержку, использование цифровых технологий и обеспечение реинтеграции в школу.

Ключевые слова: длительное лечение, детское образование, больничная педагогика, домашнее обучение, инклюзивное образование, индивидуальное обучение,

дистанционное обучение, психолого-педагогическая поддержка, реинтеграция в школу, качество образования.

Abstract. This article discusses ensuring the right to education for children requiring long-term medical treatment and mitigating the impact of illness and the treatment process on a child's educational, psychological, and social development. It emphasizes the need to integrate the educational process with medical care. Given that long-term treatment often results in a child’s temporary separation from the regular school environment—leading to missed lessons, weakened social ties with peers, and reduced academic motivation—the article argues that the educational approach must go beyond merely delivering the curriculum; it must also encompass identifying individual educational needs, considering health status, providing psychological and pedagogical support, utilizing digital technologies, and facilitating reintegration into the school system.

Keywords: long-term treatment, children's education, hospital pedagogy, home schooling, inclusive education, individual education, distance learning, psychological-pedagogical support, school reintegration, quality of education.

KIRISH. Ta’lim olish insonning fundamental huquqlaridan biri bo‘lib, bolaning sog‘lig‘i bilan bog‘liq murakkab vaziyatga tushib qolishi ushbu huquqning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Xususan, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ta’limning uzluksizligini ta’minlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, psixologik va huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir. Kasallik tufayli bolaning maktabdan uzoqlashishi uning o‘quv faoliyatidagi uzilishlar bilan birga, tengdoshlari bilan munosabatlariga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchiga, kelajak haqidagi tasavvurlariga va ijtimoiy moslashuviga ham ta’sir qilishi mumkin.

Davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarga umumiy o‘rta ta'lim berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, davolash-profilaktika muassasalari qoshidagi umumiy o‘rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan maxsus ta'lim (aqli zaif va ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun) talablariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarish, ularning umumiy o‘rta ta'lim olishini va bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi. O‘quvchilarni davolash-profilaktika muassasalari qoshidagi umumiy o‘rta ta'lim maktablariga qabul qilish hamda ularga ta'lim berish belgilangan tartibda vaqtinchalik tashkil etiladi.

30 kun va undan ortiq davr mobaynida davolanadigan o‘quvchi yoshidagi bemorlar davolash-profilaktika muassasasi qoshidagi umumiy o‘rta ta'lim maktabiga qabul qilinayotganda o‘zi ta'lim olayotgan umumiy o‘rta ta'lim maktabining rahbariyati tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan yozma ma'lumotnoma taqdim qiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim olishning turli shakllari, shu jumladan inklyuziv ta’lim va boshqa moslashuvchan ta’lim shakllari nazarda tutilgan. Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgani belgilangan [19]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi belgilangan. Nizomga ko‘ra, tibbiy ko‘rsatmalar asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga doimiy yoki vaqtincha qatnay olmaydigan o‘quvchilar uchun uyda yakka tartibda ta’lim tashkil etilishi mumkin[20]

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bo‘lajak defektologlarda pedagogik mas’uliyatni shakllantirish samaradorligini takomillashtirishning pedagogik asoslari bo‘yicha dunyodagi yetakchi olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan defektologning pedagogik mas’uliyati tuzilishini o‘rganish, ishlashga undovchi motivlarni bilish hamda bo‘lajak defektologlarda pedagogik mas’uliyat samaradorligini oshirish muammolarini psixologik jihatdan oqilona hal qilishga qaratilgan. Rus olimlaridan B.G. Ananyev, N.V. Kuzmina, A.A. Rean, E.I. Stepanova, shuningdek,P.A.Prosetskiy,E.M. Nikireyev, V.A. Slastenin, V.A. Yakunin va boshqalarning asarlarida katta empirik materiallar to‘plangan, tajribalar natijalari va nazariy umumlashmalar berilgan. Shuningdek, B.G. Ananyev, S.L.Rubinshteyn,M.Argil,V.G. Aseev, L.I. Bojovich, K. Levin, A.N. Leontyev, Z. Freyd va boshqa olimlar pedagogik mas’uliyat muammosining murakkabligi va ko‘p qirraliligini, uning mohiyati, tabiati va tuzilishini tushunishga, shuningdek, uni o‘rganish usullarini ishlab chiqishga yondashganlar.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, inklyuziv ta’lim, uzluksiz ta’lim, individual ta’lim trayektoriyasi, hamkorlik pedagogikasi va ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Normativ-huquqiy tahlil metodi – O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonunchiligi, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori tahlil qilindi.

Ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi – uzoq muddatli va surunkali kasalliklarga ega bolalarning maktabdagi tajribasi, ta’limdagi uzilishlar, maktabga qayta

[19] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020

[20] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori

integratsiyalashuv va pedagogik qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi.

Mazkur tadqiqotda “uzoq muddatli davolanishga muhtoj bola” tushunchasi tibbiy ko‘rsatmalar sababli ma’lum muddat davomida maktabga muntazam qatnasha olmaydigan, biroq o‘z ta’lim faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lgan maktab yoshidagi bolalarni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Bunda tibbiy tashxis pedagogik faoliyatning yagona mezoni bo‘lib qolmasligi kerak. Bir xil tashxisga ega bo‘lgan ikki bolaning ta’lim ehtiyojlari mutlaqo farq qilishi mumkin. Shuning uchun pedagogik yondashuv bolaning real funksional imkoniyatlariga asoslanishi zarur.

TAXLIL VA HATIJALAR

Tadqiqot natijalari uzoq muddatli davolanish jarayonida bolaning ta’lim ehtiyojlarini ta’lim jarayonida barcha mavzularni bir xil sur’atda o‘zlashtirishni talab qilishdan ko‘ra, asosiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni ajratib olish muhimdir.

O’qituvchilar o’quv dasturida o‘quvchining fan bo‘yicha asosiy tayanch bilimlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Kengaytirilgan mazmun esa bolaning sog‘lig‘i va vaqti imkon bergan sharoitda o‘zlashtiriladi.

Uzoq davom etadigan davolanish bola uchun kuchli psixologik yuklama bo‘lishi mumkin. Maktabdan, do‘stlardan va odatiy kundalik tartibdan uzoqlashish yolg‘izlik, xavotir yoki o‘ziga ishonchsizlikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Shuning uchun pedagogik faoliyatda faqat “nima o‘rgatish kerak?” degan savol emas, balki “bola o‘zini qanday his qilmoqda?” degan savol ham muhim hisoblanadi.

Maktab bola uchun nafaqat bilim olish, balki ijtimoiylashuv makonidir. Uzoq muddat maktabga bormagan bola sinfdoshlari bilan kundalik aloqani yo‘qotishi mumkin.

Shu sababli ta’lim jarayonida videomuloqot, virtual sinf, elektron guruhlar, tengdoshlar bilan birgalikdagi loyihalar va boshqa xavfsiz kommunikativ shakllardan foydalanish bolaning sinf jamoasi bilan aloqasini saqlab qolishga yordam beradi.

Tadqiqotlarda maktabga tegishlilik hissini saqlash kasallikka ega bolalarning psixologik va ijtimoiy farovonligi uchun muhimligi ta’kidlanadi [21]

Uzoq muddat davolanishga muhtoj o‘quvchining dars davomiyligi, topshiriqlar miqdori, tanaffuslar soni, o‘quv materialining taqdim etilish tezligi uning sog‘liq holatiga moslashtirilishi lozim.

Masalan, tez charchaydigan o‘quvchi uchun 40–45 daqiqalik uzluksiz mashg‘ulot o‘rniga qisqa, ammo takroriy mashg‘ulotlar samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Davolanish yakunlangach, o‘quvchining birdaniga to‘liq o‘quv yuklamasiga qaytarilishi ham muammo tug‘dirishi mumkin. Shu sababli maktabga qaytish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

[21] Lum A., Skouteris H., Dempsey K., et al. Understanding the school experiences of children and adolescents with serious chronic illness

Uyda ta’limning asosiy afzalligi bolaning sog‘lig‘i va individual imkoniyatlariga mos sharoit yaratishdir. Bunda o‘quvchi o‘ziga qulay muhitda ta’lim oladi, ortiqcha jismoniy zo‘riqishning oldi olinadi va dars jadvali davolanish tartibiga moslashtiriladi.

Biroq uyda yakka tartibdagi ta’limning ayrim cheklovlari ham bor. Masalan:

tengdoshlar bilan bevosita muloqot kamayadi,guruhda ishlash imkoniyati cheklanadi, o‘quvchi maktab jamoasidan uzoqlashishi mumkin, ayrim fanlarni amaliy o‘qitish imkoniyatlari kamayadi, faqat ularda ota-onaga tushadigan tashkiliy yuklama ortadi.

Shu sababli uyda ta’limni faqat “o‘qituvchi uyga kelib dars o‘tishi” shaklida emas, balki o‘quvchining maktab jamoasi bilan aloqasini saqlaydigan tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ta’limni tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli ularning ta’limini tashkil etishda standart yondashuvlardan ko‘ra individual, moslashuvchan va kompleks pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur, uyda yakka tartibda ta’lim berish muhim bo‘lsa-da, u bolaning ta’limiy va ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun boshqa shakllar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Shunday qilib, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ta’limni tashkil etishning asosiy maqsadi kasallik tufayli yuzaga kelgan vaqtinchalik ta’limiy uzilishni bolaning rivojlanishidagi doimiy yo‘qotishga aylantirmaslikdan iborat. Ta’limning uzluksizligi, individuallashtirilishi va insonparvarligi ta’minlangan taqdirdagina bunday bolalarning bilim olish, ijtimoiylashish va kelajakdagi imkoniyatlarini to‘laqonli rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

3. Lum A., Skouteris H., Dempsey K., et al. Understanding the school experiences of children and adolescents with serious chronic illness: a systematic meta-review // Child: Care, Health and Development. – 2017. – Vol. 43, No. 5. – P. 645–662. DOI: 10.1111/cch.12475. WWiley Online Library

4. Sense of School Belonging and Paediatric Illness: A Scoping Review // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2021. PPMC

5. Steinke S.M., Elam M., Irwin M.K., Sexton K., McGraw A. Pediatric Hospital School Programming: An Examination of Educational Services for Students who are

Hospitalized // Physical Disabilities: Education and Related Services. – 2016. – Vol. 35, No. 1. – P. 28–45. DOI: 10.14434/pders.v35i1.20896. DDOI

6. Abdurahmonov A. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.

7. Выготский Л. С. Основы дефектологии. – Москва: Просвещение, 2019. – 320 с.